Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopolov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellash asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	



BYUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI SHAKLLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA

Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich

Fan va texnologiyalar universiteti.
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
kafedrası dotsent v.b , i.f.n.,

Annotatsiya: Mazkur maqolada byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirishning dolzarbligi, uning samaradorligini oshirishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganishning ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda ichki audit qanday tashkil etilgani ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari yuzasidan taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit soʻzlar: ichki audit, byudjet tashkilotlari, xorijiy tajriba, nazorat tizimi, samaradorlik, Oʻzbekiston.

Abstract: This article discusses the relevance of establishing an internal audit system in budgetary organizations and emphasizes the importance of studying international experience to enhance its effectiveness. The internal audit practices of countries such as the United States, the United Kingdom, and other developed nations are analyzed. The paper also provides recommendations on adapting these international practices to the context of Uzbekistan.

Key words: internal audit, budgetary organizations, international experience, control system, efficiency, Uzbekistan.

Аннотация: В данной статье рассматривается актуальность формирования системы внутреннего аудита в бюджетных организациях, а также важность изучения зарубежного опыта для повышения её эффективности. Анализируются примеры организации внутреннего аудита в таких странах, как США, Великобритания и другие развитые государства. Также предлагаются рекомендации по адаптации зарубежного опыта к условиям Узбекистана.

Ключевые слова: внутренний аудит, бюджетные организации, зарубежный опыт, система контроля, эффективность, Узбекистан.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy islohotlar davrida davlat moliyasini samarali boshqarish, byudjet mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ichki audit tizimi davlat boshqaruvi va byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini nazorat qilishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi. Ichki audit faqat xatolarni aniqlash emas, balki risklarni baholash, resurslardan unumli foydalanish, shaffoflikni ta'minlash kabi jihatlar bilan ham alohida o'rin tutadi.

Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida ichki audit tizimi yillar davomida shakllangan va takomillashgan. Jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va boshqa davlatlar tajribasi, audit faoliyatini mustaqil, tizimli va strategik yondashuv asosida tashkil etish bilan ajralib turadi. Ularning tajribasi byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini yanada takomillashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda davlat moliyasini boshqarish, ochiqlikni ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish borasida ichki audit faoliyati bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda. Biroq mavjud tizimni yanada kuchaytirish va ilq'or xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirishning xorijiy tajribasi o'rganiladi, shuningdek, ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki audit tizimi bo'yicha nazariy va amaliy yondashuvlar dunyo ilmiy adabiyotida keng yoritilgan. Xususan, M. Spikin (M. Spikin, 2013) ichki auditning tashkilotdagi risklarni boshqarish va strategik qaror qabul qilishdagi o'rnini haqida fikr bildiradi. Unga ko'ra, zamonaviy ichki audit tizimi nafaqat moliyaviy nazorat, balki tashkilot faoliyatini umumiy baholovchi vosita sifatida qaratiladi.

Amerika Ichki Auditorlar Instituti (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan Ichki auditning xalqaro standartlari ko'plab davlatlar, jumladan, AQSh va Kanada audit tizimining asosi hisoblanadi. Bu standartlar auditchining mustaqilligi, ob'ektivligi, riskga asoslangan yondashuv, axborotning ishonchiligi kabi prinsiplarga asoslanadi.



Buyuk Britaniya tajribasida esa ichki audit davlat moliyasining shaffofligi va samaradorligini oshirish vositasi sifatida qaraladi (HM Treasury, 2020). Mamlakatda ichki audit faoliyati hukumatning markazlashgan audit organlari va mustaqil audit xizmatlari orqali amalga oshiriladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa ichki audit tizimi davlat sektorining hisobdorligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Xususan, Germaniyada ichki audit davlat xizmatining bir qismi sifatida qat'iy reglamentlangan tartibda olib boriladi.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham ichki auditning mazmuni va uning davlat moliyasidagi o'rni yuzasidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, A. Karimov (2020) O'zbekiston byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini joriy etishning huquqiy asoslari va amaliy muammolarini yoritgan. Shuningdek, Sh. Ergashev (2022) esa xorijiy tajribalarni o'rganish orqali ichki auditni takomillashtirish bo'yicha takliflar bildirgan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki audit tizimining samarali faoliyati uchun xalqaro standartlar, mustaqillik, axborot texnologiyalarini qo'llash va yuqori malakali kadrlar muhim omillar hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi va ularni O'zbekiston sharoitiga tatbiq etish imkoniyatlari o'rganildi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: tahliliy (analitik) metod, solishtirma (komparativ) tahlil, me'yoriy-huquqiy tahlil, deskriptiv yondashuv, tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning axborot manbalari sifatida xalqaro audit tashkilotlarining hisobotlari, ilmiy maqolalar, hukumat nashrlari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda statistik ma'lumotlar xizmat qildi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты/Analysis and results)

Hozirgi kunda global miqyosda kechayotgan integratsion jarayonlar, iqtisodiyotning tobora globallasuvi hamda innovatsion taraqqiyot sur'atlarining ortib borayotgani har qanday boshqaruv tizimining zamon talablari asosida takomillashtirilishini taqozo etmoqda. Rivojlangan davlatlar amaliy tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan byudjet mablag'larining samarali va rejali yo'naltirilishini ta'minlashda ichki audit xizmatining mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan shu tizim orqali byudjet tashkilotlarida maqsadsiz xarajatlarning oldi olinib, moliyaviy intizom mustahkamlanadi.

Xalqaro tajribani tahlil qilish natijasida ichki audit tizimining samaradorligi mamlakatlar miqyosida turlicha rivojlanganligi aniqlandi.

Zamonaviy davrning global talablaridan kelib chiqib, O'zbekistonda davlat mablag'larining shaffofligi va samarali boshqarilishini ta'minlash, byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish, maqsadsiz xarajatlarni kamaytirish hamda ularning uzluksiz nazoratini tashkil etish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu munosabat bilan, byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini joriy etish davlat moliyaviy boshqaruvining ajralmas bo'g'ini sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur tizimning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-sonli "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori asosida ichki audit xizmatini joriy etish ishlari bosqichma-bosqich yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonda ichki audit tizimi izchil ravishda rivojlanmoqda. 2022–2024 yillarda audit tekshiruvlari soni yilma-yil oshib, aniqlangan moliyaviy buzilishlar soni ham ko'paygan. Bu bir tomondan audit faoliyatining faollashganini ko'rsatsa-da, ikkinchi tomondan byudjet mablag'laridan samarali foydalanishda muammolar borligini ham ko'rsatadi.

Xalqaro tajribada davlat sektorining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ichki audit tizimlarini mahalliy sharoitlarga moslashtirishga qaratilgan qator institutsional va tashkiliy choralar ishlab chiqilmoqda. Har bir mamlakat ichki audit faoliyatini amalga oshirishda o'zining milliy qonunchilik bazasiga tayanadi va audit jarayonlari uchun alohida tartib hamda reglamentlarni belgilaydi.

Bunga qo'shimcha ravishda, ko'pgina davlatlar ichki audit faoliyatini tashkil etishda xalqaro auditorlik tashkilotlari – xususan, Ichki Auditorlar Instituti (IIA), Yevropa Ichki Audit Institutlari Konfederatsiyasi (ECIIA) va Oliy Audit Tashkilotlari xalqaro tashkiloti (INTOSAI) tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlardan foydalanadi. Mazkur ko'rsatmalar majburiy huquqiy hujjat maqomiga ega bo'lmagan bo'lsa-da, davlat sektori auditi uchun moslashuvchan va universal qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodologik asos sifatida keng qo'llaniladi.

AQSh ichki audit tizimi jihatidan yuqori darajada tashkil etilgan. Har yili minglab byudjet tashkilotlarida ichki audit o'tkazilib, yuzlab million dollarlik moliyaviy xatoliklar aniqlanadi. Audit organlari Kongress va federal agentliklarga hisobot beradi, audit natijalari ochiq e'lon qilinadi. Bu oshkoralik tizimni samarador qiladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida byudjet tashkilotlari faoliyatida ichki audit tizimining shakllanishi uzoq tarixga ega bo'lib, uning ildizlari Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyingi davr bilan bog'liq. Aynan shu vaqtda, Mudofaa vazirligi tarkibida tashkil etilgan Bosh nazorat boshqarmasi ichki moliyaviy nazorat mexanizmlarini institut sifatida shakllantirishda muhim bosqich bo'lgan.



1940-yillarning oxirlariga kelib, ushbu struktura doirasida AQSh hududi va xorijdagi harbiy missiyalar asosida yigirmadan ortiq nazorat bo'limlari faoliyat ko'rsata boshlagan. Bu tashabbuslar, avvalo, harbiy byudjet mablag'laridan foydalanishdagi suiste'molliklar, korrupsiya holatlari va resurslarning maqsadsiz sarflanishiga qarshi kurash zarurati natijasida yuzaga kelgan.

Shuni ta'kidlash joizki, AQSh iqtisodiy muhitining o'ziga xosligi va ingliz nazorat tizimining yuqori xarajat va vaqt talab qilishi sababli, bu modeldan voz kechilgan. Natijada, AQSh ichki audit tizimini milliy sharoitlarga mos holda qayta shakllantirish zarurati yuzaga keldi. Mazkur ehtiyojlar asosida qabul qilingan muhim huquqiy hujjatlardan biri bu – "Sarbanes-Oxley" qonuni bo'lib, aynan shu qonun asosida COSO (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission) hamda COSO-ERM (Enterprise Risk Management) modellari ishlab chiqilishi nafaqat AQSh, balki jahon miqyosidagi davlat sektorida ichki nazorat va ichki auditni kuchaytirishga zamin yaratdi. Mazkur modellar joriy etilishi byudjet tashkilotlarida ichki nazorat va auditning funksional ahamiyatini keskin oshirdi hamda xalqaro tajriba va amaliyotga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi kunda ushbu modellarga asoslangan talablar aksariyat rivojlangan mamlakatlarda amaliyotga tatbiq etilgan. E'tiborga molik jihatlardan yana biri shundaki, COSO va COSO-ERM modellari universalligi sababli, ular nafaqat byudjet tashkilotlari, balki xususiy sektor faoliyatiga ham samarali moslashtirildi. AQSh davlat sektori uchun ushbu model asosida maxsus audit standartlari ishlab chiqildi. AQShda davlat audit odatda uch asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi: moliyaviy audit, muvofiqlik audit va samaradorlikni baholash (performance audit). Biroq, AQSh audit standartlarining o'ziga xos jihati shundaki, ular tavakkalchiliklarni boshqarish jarayonini har tomonlama tartibga solmaydi. Risklarni aniqlash, baholash va ularni turkumlash ko'proq auditorning professional mulohazasi, tajribasi va analitik salohiyatiga bog'liq bo'ladi.

Buyuk Britaniyada ichki audit faoliyati hukumat moliyasining shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Auditni HM Treasuryga bo'ysunuvchi maxsus organlar olib boradi. Aniqlangan buzilishlar soni barqaror, bu esa tizimning profilaktik va nazorat mexanizmlarining kuchliligi bilan izohlanadi.

Germaniya tajribasida ichki audit davlat boshqaruvi tizimiga integratsiyalashgan. Har bir federal idorada mustaqil audit bo'limlari mavjud bo'lib, ular Federal Audit Palatasiga hisobot beradi. So'nggi yillarda aniqlangan moliyaviy buzilishlar kamaymoqda, bu esa auditning erta ogohlantiruvchi funksiyasini kuchaytirganini ko'rsatadi.

Kanadada ichki audit tizimi IIA standartlariga to'liq asoslangan. Audit faoliyati faqat tekshirish emas, balki maslahat berish va risklarni baholashni ham o'z ichiga oladi. Davlat audit hisobotlari Parlamentga taqdim etiladi va keng jamoatchilikka ochiq.

Janubiy Koreyada esa ichki audit faoliyati zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan. Raqamli audit platformalari orqali real vaqt rejimida ma'lumotlar tahlil qilinadi. Bu audit samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatda ichki audit tizimi yetarlicha rivojlanmagan bo'lib, bu holat korporativ boshqaruv va iqtisodiy rivojlanish darajasi o'rtasidagi nomutanosiblik bilan izohlanadi. Ayniqsa, mustaqil audit va ichki nazorat tizimlarining institutsional jihatdan shakllanmaganligi jiddiy muammo sifatida qayd etiladi. Yaponiya Moliya vazirligining audit jarayonlariga haddan ziyod aralashuvi auditorlarning kasbiy mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, buxgalteriya hisobi va audit tizimiga G'arb tajribasini to'liq moslashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar hozirgi kungacha to'liq yakunlanmagan. Shu bois ichki audit tizimi Yaponiya korporativ muhitida keng ommalashmagan va barqaror institutsional asosga ega emas. Ayni vaqtda, Xitoy tajribasi bunday vaziyatdan keskin farq qiladi. Xitoy hukumati ichki audit va buxgalteriya sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib, sertifikatlangan auditorlar va buxgalterlar sonini oshirish bo'yicha tizimli choralar ko'rmoqda. Mamlakatda hozirgi kunda 50 mingdan ortiq auditorlik tashkiloti va 70 mingdan ziyod ichki auditor faoliyat yuritmoqda. Bu esa Xitoyda audit tizimi barqaror rivojlanayotganini va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatadi.

Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ichki audit samaradorligini oshirish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- mustaqil va professional audit xizmati;
- xalqaro standartlarga asoslangan yondashuv;
- ochiqlik va hisobotlilik;
- axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- audit natijalarining ijrosi bo'yicha qat'iy nazorat.

Bu omillarni O'zbekiston sharoitida bosqichma-bosqich tatbiq etish ichki audit tizimini kuchaytirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ichki audit tizimi byudjet tashkilotlarida moliyaviy intizomni kuchaytirish, mablag'larning oqilona va samarali sarflanishini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Rivojlangan



davlatlar tajribasi – xususan AQSh, Germaniya, Xitoy va boshqa mamlakatlar misolida ko'rish mumkinki, samarali ichki audit tizimi mavjud bo'lgan joyda korrupsiya xavfi kamayadi, resurslar to'g'ri yo'naltiriladi va hisobotlilik darajasi oshadi.

O'zbekiston tajribasi ham bosqichma-bosqich ichki audit tizimini takomillashtirish yo'lidan bormoqda. Biroq, mavjud holat hali xalqaro standartlarga to'liq mos kelmaydi va muayyan kamchiliklar mavjud. Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Ichki audit xizmatining institutsional mustaqilligini mustahkamlash – audit xizmati faoliyati to'liq mustaqil va bosimlardan xoli bo'lishi zarur.

2. Auditorlar malakasini oshirish va xalqaro sertifikatlash tizimini joriy etish – IIA, INTOSAI kabi xalqaro standartlar asosida muntazam o'quv va malaka oshirish dasturlarini tashkil qilish.

3. Axborot texnologiyalaridan keng foydalanish – audit jarayonlariga raqamlashtirish, sun'iy intellekt va big data texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlikni oshirish.

4. Audit natijalari ijrosini monitoring qilish tizimini kuchaytirish – aniqlangan kamchiliklar yuzasidan aniq choralar ko'rilishi va ularning bajarilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilishi zarur.

5. Ichki auditni rejalashtirishda riskga asoslangan yondashuvni joriy qilish – resurslar yuqori xavfli yo'nalishlarga yo'naltirilishi kerak.

6. Ijtimoiy nazorat va ochiqlikni ta'minlash – audit hisobotlarini jamoatchilikka ochiq tarzda taqdim etish orqali hisobdorlikni kuchaytirish.

Ushbu takliflarni bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etish orqali O'zbekistonda byudjet tashkilotlari faoliyatida ichki audit tizimini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish, korrupsion xavflarni kamaytirish va davlat moliyasi ustidan samarali nazoratni yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3231-son Qarori.
2. Spikin, M. (2013). Internal Audit: Theory and Practice. London: Palgrave Macmillan.
3. The Institute of Internal Auditors (IIA). (2022). International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing. www.theiia.org
4. HM Treasury. (2020). Public Sector Internal Audit Standards. United Kingdom Government Publications.
5. European Court of Auditors. (2021). Internal Audit in the EU Public Sector. Luxembourg: Publications Office of the European Union.
6. Karimov, A. (2020). "Ichki audit tizimini O'zbekistonda joriy etishning dolzarb masalalari". Moliyaviy tahlil va audit jurnali, №3, 45–50-betlar.
7. Ergashev, Sh. (2022). "Xorijiy tajriba asosida ichki auditni takomillashtirish yo'llari". O'zbekiston moliyasi jurnali, №6, 30–35-betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-martdagi PQ-4646-sonli qarori "Ichki audit tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
9. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2021). Ichki audit xizmatlari faoliyatini tartibga solish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
